

**Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida amaliy ishlar orqali
o'quvchilarning kreativ faoliyatini shakllantirish (3-sinf misolida)**

Yo'ldosheva Sarvinoz Ilhom qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot ishida 3-sinf texnologiya darslarida amaliy ishlar asosida o'quvchilarning kreativ faoliyatini shakllantirish masalasi yoritilgan. Boshlang'ich ta'lim jarayonida texnologiya fanining o'rni, amaliy topshiriqlarning ahamiyati hamda zamonaviy metod va yondashuvlar orqali o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Kreativlik, texnologiya darsi, boshlang'ich ta'lim, amaliy ish, interfaol metod, ijodiy faoliyat, STEAM yondashuvi.

**Formation of students' creative activity through practical work in primary
school technology lessons (on the example of grade 3)**

ANNOTATION

This thesis discusses the issue of forming students' creative activity through practical work in grade 3 technology lessons. The role of technology in the primary education process, the importance of practical tasks, and ways to develop creative thinking in students through modern methods and approaches are analyzed.

Keywords: Creativity, technology lesson, primary education, practical work, interactive method, creative activity, STEAM approach.

Bugungi globallashuv va raqamli rivojlanish davrida ta'lim tizimining bosh maqsadi – ijodkor, tashabbuskor va mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishdir. Boshlang'ich ta'lim esa bu jarayonning poydevori hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf texnologiya darslari o'quvchilarning qo'l mehnatiga, texnik ijodiyotga, hayotiy ko'nikmalarni egallashga va eng muhimi – kreativ faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, amaliy ishlar orqali bolalar o'z tasavvurlarini kengaytiradilar, yangi g'oyalarni sinab ko'radilar va ijodkorlikni o'zlashtiradilar.

Texnologiya fani o'quvchilarga turli materiallar (qog'oz, karton, yog'och, gazlama va tabiiy buyumlar) bilan ishlashni, mehnat jarayonida xavfsizlik va aniqlik qoidalariga amal qilishni o'rgatadi, jamoada ishlash, mas'uliyatni his qilish va natijaga erishish ko'nikmasini rivojlantiradi. Bu jarayonda kreativlik — o'quvchilarning yangilik yaratish, mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni noodatiy yo'l bilan hal etish qobiliyatidir.

3-sinf texnologiya darslarida amaliy ishlar quyidagi shakllarda tashkil etilishi mumkin:

- ✓ qog'oz va kartondan buyum yasash;
- ✓ tabiiy materiallardan kompozitsiyalar tuzish;
- ✓ gazlama bilan ishlash, bezak elementlarini yaratish;
- ✓ oddiy texnik o'yinchoqlar yasash.

Bunday mashg'ulotlar bolalarda sabr-toqat, diqqat, estetik did va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Har bir muvaffaqiyatli bajarilgan topshiriq bolaning o'z kuchiga ishonchini oshiradi.

“Kreativlik” atamasi lotincha “creatio” so‘zidan olingan bo‘lib, “yaratish”, “yangilik qilish” ma’nolarini bildiradi. Pedagogik nuqtai nazardan, kreativlik – o‘quvchilarning yangi g‘oya yaratishi, mavjud muammoni noodatiy yo‘l bilan hal qilishi, o‘z ijodiy salohiyatini amalda namoyon etishi demakdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni rivojlantirish tafakkurni kengaytiradi, mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatadi, yangi bilimlarni egallashni osonlashtiradi, bolalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlaydi.

Kreativlikni rivojlantirishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

1. Texnologiya darslarida ijodiy loyihalar tizimini joriy etish o‘quvchilarning amaliy faoliyatini maqsadli, rejalashtirilgan va natijaga yo‘naltirilgan holga keltiradi. Loyihaviy faoliyat o‘quvchilarga mustaqil reja tuzish, bosqichma-bosqich ish olib borish, materiallarni tanlash, o‘lchov, dizayn va bezak yechimlarini mustaqil ishlab chiqish, yakuniy mahsulotni himoya qilish yoki taqdim etish ko‘nikmalarini beradi.

Masalan, “Qog‘ozdan foydali buyum yarataman” yoki “Uy jihozlari maketini tayyorlayman” kabi mini-loyihalar o‘quvchilarni o‘ylash, sinab ko‘rish va xulosa chiqarishga o‘rgatadi.

2. STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) - yondashuvini amaliy mashg'ulotlarga integratsiya qilish texnologiya darslarining mazmunini boyitadi, ularni zamonaviy innovatsion ruhda tashkil etish imkonini beradi.

Masalan, o'quvchilar "Shamol yordamida harakatlanuvchi o'yinchoq yasash" loyihasini bajarayotganda, ular shamol kuchini (fan), harakat mexanizmini (muhandislik), dizaynini (san'at) va o'lchovlarini (matematika) uyg'unlashtiradilar. Natijada, STEAM integratsiyasi o'quvchilarda tizimli fikrlash, ixtirochilik va innovatsion yondashuvni shakllantiradi.

3. O'quvchilarning mustaqil ishlari va g'oyalarini rag'batlantirish. Boshlang'ich ta'limda har bir bola o'ziga xos qiziqish va iste'dodga ega. Shu sababli o'qituvchi ularning mustaqil fikr yuritishiga va yangi g'oyalar ilgari surishiga imkon yaratishi zarur.

Buning uchun quyidagi shakllar samarali "O'zing o'yla, o'zing yarat" burchagini tashkil etish, eng yaxshi ijodiy ishlar uchun "Kreativ bola" yoki "Oy loyihasi" kabi nominatsiyalar joriy etish, sinfda kichik "Ijodiy ko'rgazma"lar tashkil etish.

4. Darslarda multimediya vositalaridan foydalanish orqali vizual kreativlikni oshirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida vizual materiallar – o'quvchilarning tasavvurini boyitish, e'tiborini jalb qilish va kreativ fikrlashni rivojlantirishning muhim vositasidir.

Multimediya texnologiyalari yordamida dars jarayoniga 3D modellar, animatsiyalar, video lavhalar, interaktiv slaydlar kiritish, texnologik jarayonlarni virtual tarzda namoyish etish (masalan, "qog'ozdan gul yasash" animatsiyasi), o'quvchilarning o'z ishlari natijasini surat yoki video shaklida taqdim etish mumkin. Bu nafaqat darsni qiziqarli qiladi, balki o'quvchilarda tasavvur, rang sezgisi, kompozitsion fikrlash va estetik didni rivojlantiradi.

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'quvchilari har bir dars jarayonida ijod qilishni yoqtiradilar. Ular materiallar bilan ishlash, turli shakllarni yaratish, hayotiy masalalarni hal qilishda o'z g'oyalarini qo'llash orqali ijodiy faoliyatni rivojlantiradilar. 3-sinf o'quvchilari misolida bu jarayon ijodiy topshiriqlar orqali o'z g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish orqali darsga qiziqishni oshirish, mustaqil fikrlashni va yangilikka intilishni rag'batlantirish bilan ifodalanadi. Bu bosqichda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda fan o'qituvchisining ham o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. **Pikassoning** quyidagi fikri bu fikrga yaqqol misol bo'ladi: "Har bir yosh bola ijodkor bo'lib tug'iladi, asosiy muammo esa ana shu ijodkorlikni o'smirlikka o'tgan sari ham ushlab qolishda".

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Rahima Mavlonova, Nargiz Raxmankulova. Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya\ O'quv qo'llanma\ Toshkent-2013\ G'afur G'ulom nashriyoti.
2. X. Sanakulov, D. Yakubova R. Lutfitdinova. Texnologiya va uni o'qitish metodikasi. Darslik. - Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2020. 224-b.
3. Yo'ldoshev J.G'., Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G. "Interfaol ta'lim sifat kafolati" (Bolaga do'stona munosabatdagi ta'lim). – T.: 2008-y. – 172 b. 11-bet.
4. Xorijiy davlatlarda steam ta'lim texnologiyasini rivojlanish tarixi. Abdumajitova Sayohat Abduqosimovna. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali, 2023-yil 10-son, 68-72 bet.
5. Yo'ldosheva Sarvinoz Ilhom qizining "Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning kreativ faoliyatini shakllantirish texnologiyasi (Texnologiya darslari misolida)" mavzusidagi magistrlik ishi.